

O'zbekiston Respublikasi

"NAVOIYURAN"
Davlat korxonasi



REPUBLIC OF UZBEKISTAN

"NAVOIYURAN"
State Company

210100, O'zbekiston Respublikasi, Navoiy viloyati, Navoiy shahar, Inspektorlar ko'chasi, 7-uy

13 yanvar 2025 yil.

13-son

BUYRUQ

"Navoiyuran" DKda xalqaro standart ISO 37001:2016 va ISO 37301:2021 talablariga muvofiq "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti" hamda "Komplayens menejment" tizimlari hujjatlarini tasdiqlash va amalga kiritish to'g'risida

Xalqaro standart ISO 37001:2016 va ISO 37301:2021 talablari, O'zbekiston Respublikasi 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zRQ-419-son Qonuni, "Navoiyuran" DKning 2023-yil 14-oktabrdagi "Navoiyuran" DKda xalqaro standart ISO 37001:2016 va ISO 37301:2021 talablariga muvofiq "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti" hamda "Komplayens menejment" tizimlari hujjatlarining ishlab chiqilishi, joriy etilishi hamda ishchi guruhi, jarayonlar va jarayon rahbarlarini tayinlash to'g'risida"gi 385-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Xalqaro standart ISO 37001:2016 va ISO 37301:2021 talablari asosida ishlab chiqilgan:

- Komplayens menedjment siyosati;
- 2025-yilda "Navoiyuran" DKda korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens menejment sohasidagi maqsadlar;
- Kontekst, qiziqqan tomonlar talablari, xavf va imkoniyatlar;
- "Navoiyuran" davlat korxonasida korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens menedjment sohasida ichki auditni amalga oshirish tartibi;
- "Navoiyuran" Davlat korxonasi 2025-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur hujjatlari tasdiqlansin hamda 2025-yilning 10-yanvardan boshlab amalga kiritilsin.

2. Korxona Boshqarmasi tegishli bo'limlari va xizmatlari boshliqlari amalga kiritilgan hujjatlar bilan mutaxassislarni tanishtirilishini hamda unga qat'iy amal qilinishini ta'minlasin.

3. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish Bosh direktorning birinchi o'rinnbosari – bosh muhandis A.B. Saparov zimmasiga yuklatilsin.

Bosh direktor



Dj.S. Fayzullayev

Ijrochi: F.N.Pulatov
Telefon: (79) 507-01-58
FN.Pulatov@navoiyuran.uz